

ONA TILI O'QITISHDA OG'ZAKI NUTQNI O'STIRISHGA OID TOPSHIRIQLAR
TAHLILI (5-SINF ONA TILI DARSLIGI MISOLIDA)ANALYSIS OF INSTRUCTIONS FOR ORAL SPEECH IN TEACHING NATIVE
LANGUAGE (AN EXAMPLE OF 5TH GRADE MOTHER TONGUE)

Shodiyeva Maftuna Abdurahim qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU 3-bosqich talabasi

maftunashodiyeva1801@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.15593319>

Annotatsiya: Ushbu maqolada 5-sinf darsligi asosida og'zaki nutqni o'stirishga oid topshiriqlar tahlili, og'zaki nutqni o'stirishga oid tavsiyalar berilgan. Shuningdek, maqolada muallif tomonidan og'zaki nutqqa oid bir qancha topshiriqlar ko'rsatib o'tilgan.

Annotation: In this article, this article provides recommendations on the analysis of oral instructions based on a 5th-grade textbook, recommendations for feeding oral speech. In the article, several assignments of the author show several instructions on oral speech.

Kalit so'zlar: nutq, mashq, tavsiya, darslik, tayyorlangan nutq, tayyorlanmagan nutq, tanqidiy fikrlash, og'zaki nutq.

Keywords: Speech, exercise, Recommendation, textbook, prepared speech, critical thought, oral speech.

Barchamizga ma'lumki, ona tili darslarida og'zaki nutq muhim omil sanaladi. Og'zaki nutqni o'stirish ona tili ta'limida alohida yondashuvni talab qiladi. Og'zaki nutq murakkab ko'p qirrali jarayon bo'lib, uning yordamida verbal muloqot amalga oshiriladi. Og'zaki nutqni o'stirish ona tili ta'limida alohida yondashuvni talab qiladi. O'qib tushunish va tinglab tushunish jarayonida tayyor til materiallari beriladi. Og'zaki nutq yaratish uchun esa so'zlovchi nafaqat tilning sintaktik-morfologik tizimi, balki so'zlar birikuvchanligi tizimini ham bilishi zarur. Og'zaki nutqning quyidagi turlari farqlanadi:

- 1) **tashabbusli, faol nutq**– so'zlovchining ichki motivlari, maqsadidan kelib chiqadigan nutq, ya'ni uning o'z tashabbusi bilan, mustaqil tarzda yaratgan nutqi;
- 2) **reaktiv, javob nutqi**– suhbatdoshning nutqiga yoki savoliga javob bo'ladigan nutq;
- 3) **reproduktiv, taxminiy nutq**– yodda qolgan matnni aytib berishdan iborat nutq.

Muloqot jarayonida fikrni ifodalash tayyorgarliksiz yoki tayyorgarlik ko'rilgan holda yuz berishi mumkin, shu bois ta'limda ularning har ikkalasi o'rgatiladi.

Tayyorlanmagan nutq– yuzaga kelgan vaziyatga bevosita reaksiya sifatidagi nutq.

Tayyorlangan nutq– matnga yoki o'qituvchi tomonidan berilgan, oldindan tayyorlangan mazmun va til materialiga tayanadigan nutq.

O'quvchilarni tayyorgarliksiz nutqqa o'rgatishda o'qituvchining asosiy metodik vazifasi fikrlash, zarur va yetarli darajada til vositalarini tanlash hamda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. [1:70]

Hozirgi kunda yangi avlod darsliklarida og'zaki nutqni o'stirishga oid bir qancha savol va topshiriqlar o'rin egallagan. Og'zaki nutqni rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan. Darsliklardagi barcha mavzularda ushbu ko'nikma bilan uyg'unlashuv mavjud. Asosan, tayyorlanmagan nutqqa oid topshiriqlar soni bir muncha yuqori ko'rsatkichni tashkil qiladi.

Hozir og'zaki nutqqa oid bir necha topshiriqlarni 5-sinf ona tili darsligi misolida ko'rib chiqamiz.



3. Gapiring. To'g'ri / noto'g'ri

✓
✗

1	Qurut shirinlik hisoblanadi.	*	*
2	Qurut sovuq o'lkalarda ko'p iste'mol qilinadi.	*	*
3	Qurut uzoq vaqt quritilgani uchun qurut deyiladi.	*	*
4	Qurut ko'rish qobiliyatiga salbiy ta'sir qiladi.	*	*
5	Sayyohlar qurutni sovg'a sifatida o'z yurtlariga olib ketadilar.	*	*
6	Qurut O'zbekistonga import qilinadi.	*	*

[2:43]

Masalan, quyidagi topshiriqni olaylik. Darslikda "gapiring" tarzida berilgan ushbu topshiriq tayyorlangan nutq turiga misol bo'ladi. Ushbu topshiriqda o'quvchi berilgan matn asosida gaplarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini topishi va uni og'zaki tarzda ifodalashi kerak. Bu turdagi topshiriqlar o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, tezkor qaror qabul qilish, diqqatni jamlashga ko'maklashadi. Tayyorlanmagan nutqqa oid topshiriqlar 5-sinf o'quvchilariga qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shu sababli ushbu turdagi topshiriqlardan foydalanish yaxshi natija beradi. Albatta, o'quvchilarni tayyor nutqqa olib kirmasdan ularga tayyorlanmagan nutqqa oid topshiriqlarni berish xato sanaladi. Bundan tashqari 5-sinf darsligida bir qancha rasm asosida suhbat qurish va hikoya tuzishga oid topshiriqlar ham berilgan bo'lib, ular o'quvchilarda tasviriy nutq, mantiqiy izchillik, fikr almashish, bahs-munozara madaniyati va ifoda erkinligini rivojlantirish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Og'zaki nutqni rivojlantirishga oid topshiriqlar darsliklarda yaxshi aks etgan.

Qo'shimcha tarzda ilmiy-tadqiqotchi o'qituvchi sifatida nutqni rivojlantiruvchi bir qancha topshiriqlar berib o'tmoqchiman.

1-topshiriq. Rolli o'yinlar: O'quvchilar turli vaziyatlarni (masalan, do'konda xarid qilish, shifokor qabulida bo'lish, kutubxonachi bilan gaplashish) ijro etishadi. Bu vaziyatga mos nutq tuzish, emotsional ifoda va o'zaro muloqotni rivojlantiradi.

2-topshiriq. Sinonim va antonimlarni topish: Berilgan so'zlarga sinonim va antonimlar topish, ularni gaplarda qo'llash. Bu so'z tanlash va nutqni boyitishga yordam beradi.

3-topshiriq. "Qanday qilib...?" ko'rsatmalari: O'quvchilar biror narsani (masalan, "qanday qilib choy damlanadi?", "qanday qilib rasm chiziladi?") qanday bajarishni tushuntirib berishadi. Bu aniqlik, ketma-ketlik va tushuntirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Bundan tashqari darslarda audio va videomatnlar orqali qayta hikoya qilish usullaridan foydalansa ham qiziqarliroq bo'ladi. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, qaysi metod va usullardan foydalanib dars o'tishdan qat'iy nazar o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalari bilan birga hayotiy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

References:**Используемая литература:****Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Asilova, G, F, Acik. (2024). Nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish asoslari. 70-75.
2. Абдуллаева, М. Х., Башарова, Г. Г., & Рахматова, О. К. (2019). Преимущества индивидуального подхода в образовательном процессе. *Проблемы современной науки и образования*, (12-1 (145)), 88-90.
3. Namoz Rasulov, Donoxon Usmonova, Yulduzxon Hasanova.(2024). 5-sinf ona tili darsligi. 40-43.

INNOVATIVE
ACADEMY